

УДК:616.89–008.441.13:615.825

ISTE'MOL QILINADIGAN GIYOHVAND MODDALAR TOIFASINING BEMORLAR SOG'AYISHIGA TA'SIRI

N.Q. Kenjayeva¹, J.A. Rizayev¹, S.E. Umirov^{2,3}, A.YA. Buriyev⁴

¹Samarqand davlat tibbiyot universiteti, ²Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi, ³Alfraganus universiteti, ⁴Turon universiteti (O'zbekiston Respublikasi)

ANNOTATSIYA

Giyohvand moddalarga tobelikni davolash samaradorligi, remissiyaga erishish va retsidivlar chastotasini mintaqaviy darajada baholash muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga molik. Iste'mol qilinadigan giyohvandlik vositalari toifasining tobelikdan sog'ayish darajasiga ta'sirini baholashdan iborat. Samarqand viloyatida 2010-2024 yillarda GMT dan sog'ayish holatlari va iste'moldagi GM toifasi haqidagi ma'lumotlar. Tadqiqotda klinik, epidemiologik, ijtimoiy-gigiyenik, laborator va statistik usullardan foydalanildi. 2010-2024 yy. mobaynida, remissiya o'rtacha 14,6% GMT patsiyentlarda qayd etilgan va dinamikada o'sish tendensiyasiga ega. Iste'mol qilinadigan GM tarkibida opiy va geroin ulushining oshishi bilan GMT bemorlarining sog'ayishi o'rtasida salbiy, polinarkomaniya, ko'knori, kannabis guruhidagi GM, sintetik va dori giyohvandlik vositalari ulushining oshishi bilan musbat korrelyativ bog'liqlik mavjud. Tadqiqot GM iste'molining mintaqaviy o'ziga xosligini, iste'moldagi moddalar xilma-xilligi va o'zgaruvchanligini, sintetik va dori moddalar, kannabis guruhidagi vositalarning hissasi o'sayotganligini hamda remissiya chastotasining nisbatan pastligini ko'rsatadi. Remissiya chastotasining nisbatan pastligi, patsientlarni majmuaviy davolashga qaratilgan klinik, epidemiologik va jamoat salomatligi nuqtayi nazaridan integratsiyalangan va resurslar samaradorligini oshiradigan terapevtik hamda reabilitatsion yondashuvlar qo'llanilishini taqazo etadi.

Kalit so'zlar: Giyohvandlik, giyohvandlik vositalari, remissiya, chastota, hissa, dinamika, korrelyatsiya

АННОТАЦИЯ

Оценка эффективности лечения наркомании, достижения ремиссии и частоты рецидивов на региональном уровне имеет важное научно-практическое значение. Оценить влияние категории употребляемых наркотических средств на уровень ремиссии от наркомании. Представлены данные о случаях выздоровления от зависимости и категории наркотических средств (НС) употребляемых в Самаркандской области за 2010-2024 годы. В исследовании использованы клинические, эпидемиологические, социально-гигиенические, лабораторно-статистические методы. За период 2010-2024 годы ремиссия зарегистрирована в среднем у 14,6% зависимых и имеет тенденцию к нарастанию в динамике. Отмечена отрицательная корреляция между ростом доли опия и героина в потреблении НС и выздоровлением пациентов с зависимостью, а также положительная корреляция с ростом доли полинаркоманий, мака, каннабиса, синтетических и лекарственных наркотиков. Исследование

152

показывает региональную специфику потребления НС, разнообразие и вариабельность потребляемых веществ, увеличение доли синтетических и лекарственных веществ, каннабиса, а также относительно низкую частоту ремиссий. Относительно низкая частота ремиссии требует применения комплексных терапевтических и реабилитационных подходов с клинической, эпидемиологической и санитарно-эпидемиологической точек зрения, повышающих эффективность использования ресурсов и направленных на комплексное лечение пациентов.

Ключевые слова: Наркомания, наркотики, ремиссия, частота, вклад, динамика, корреляция

ABSTRACT

Assessing the effectiveness of drug addiction treatment, achieving remission, and relapse rates at the regional level is of significant scientific and practical importance. To assess the impact of drug category on the rate of remission from drug addiction. This paper presents data on cases of recovery from addiction and the categories of narcotic drugs (NS) used in the Samarkand region from 2010 to 2024. The study utilized clinical, epidemiological, social, and laboratory-statistical methods. Over the period 2010–2024, remission was recorded in an average of 14.6% of addicts, and this rate has been increasing. A negative correlation was noted between the increase in the share of opium and heroin in the consumption of NS and the recovery of patients with addiction, as well as a positive correlation with the increase in the share of polydrug addiction, poppy, cannabis, synthetic and medicinal drugs. The study reveals regional specificities in substance use, diversity and variability, an increased share of synthetic and medicinal substances, and cannabis, as well as a relatively low remission rate. The relatively low remission rate requires the use of comprehensive therapeutic and rehabilitation approaches from clinical, epidemiological, and sanitary-epidemiological perspectives, increasing the efficiency of resource use and focusing on comprehensive patient treatment.

Key words: Drug addiction, drugs, remission, frequency, contribution, dynamics, correlation

Kirish. Jahon miqyosida giyohvand moddalarini (GM) iste'mol qiluvchilar soni so'nggi yillarda sezilarli darajada oshib bormoqda - agar 2012 yilda 246 million nafar kishi giyohvandlik vositalarini iste'mol qilishgan bo'lishsa, 2023 yilda ularning soni taxminan 316 million nafar kishidan iborat bo'ldi, ya'ni o'n yil mobaynida 28% ga o'sgan [14, 15].

Giyohvand moddalarga tobeklik (GMT) retsidivi global muammo bo'lib, jahon miqyosida qaytalanish chastotasi o'rtacha 40-60% ni tashkil etadi, hamda bu ko'rsatkichlar davolashning samaradorligiga, qo'llanilayotgan terapevtik yondoshuvlarga, shaxsning ruhiy va ijtimoiy holatiga bog'liq. Shu bilan birga GMT retsidivi jahonning turli mintaqalarida ma'lum darajada tafovutlarga ham ega [4-7]. Hukumatning siyosati, ya'ni mamlakatdagi qonunlar va siyosatlar

giyohvandlikka qarshi kurashishda muhim rol o'ynaydi. Masalan, AQSH va Yevropa mamlakatlaridagi tibbiy yordam dasturlari bilan bog'liq farqlar retsidiv darajasining farqlanishini belgilaydi. Qator tadqiqotlar va milliy statistik ma'lumotlarga ko'ra, davolanishdan keyin 1 yil muddat o'tgach AQSHda giyohvand moddalarga tobe shaxslar orasida retsidiv darajasi 40-60% ni tashkil etadi [12]. Ammo bu ko'rsatkichlar, davolashning samaradorligiga bog'liq tarzda dinamikada o'zgarib turishi mumkin.

Yevropa va Kanadada ham giyohvand moddalarga tobe shaxslarda retsidiv chastotasi yuqori, taxminan 50-60% atrofida. Bunda, ayniqsa, davolash kurslarining samaradorligi va psixosotsial xizmatlarning mavjudligi katta rol o'ynaydi. Yevropada davolanishdan keyingi 12-24 oy mobaynida qaytalanish darajasi 50% ni tashkil etadi [11].

Janubiy Amerika mamlakatlarida retsidivlanish chastotasiga ijtimoiy va iqtisodiy muammolar juda katta ta'sir ko'rsatadi. Mintaqada, ko'pincha, qo'shimcha yordam dasturlarining yoki farmakoterapevtik choralarning yetishmasligi va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining zaifligi bilan bog'liq jihatlari yaqqol namoyon bo'ladi [7, 9].

Osiyo qit'asidagi ayrim davlatlarda, xususan, Yaponiya va Xitoyda giyohvandlikka nisbatan huquqiy va madaniy omillar munosabati o'ta qat'iyligi bois tobelik kam kuzatiladi, shunga mutanosib ravishda, retsidivlanish hodisasi yuqori darajada emas. Hindistondagi retsidiv darajasi yetarlicha o'rganilmagan, lekin ayrim tadqiqotlar retsidivning 30–40% atrofida ekanligini ko'rsatadi, bu holat mamlakatdagi ijtimoiy yordam tizimi va farmakoterapiyadan bahramandlikning holati bilan belgilanishi mumkin [8-10].

Afrikada retsidiv darajasi odatda yuqori emas, chunki ushbu mintaqa giyohvandlikka nisbatan qator huquqiy cheklavlarni qo'llaydi. Ammo, bunda ijtimoiy va iqtisodiy omillar, jumladan, murakkab tibbiy xizmatlar va ko'nikmalarning yetishmasligi, retsidivning (30–40% atrofida) oshishida muhim rol o'ynaydi [9]. O'zbekistonda GMT dan barqaror remissiyaga erishish - sog'ayish muammosi yetarlicha o'rganilmasdan qolmoqda [1-4].

Giyohvand moddalarga tobelik retsidivining chastotasi biologik, psixologik va ijtimoiy holatlar bilan belgilanuvchi yana ko'plab turli omillarga, xususan shaxsning ruhiy va ijtimoiy holatiga, qo'llanilayotgan terapevtik yondoshuvlarga hamda iste'mol qilinadigan giyohvandlik vositalarining toifasiga ham bog'liq, ya'ni giyohvand moddalarga tobelik hodisasining o'zi kabi, ushbu patologiyani davolash samaradorligi, remissiyaga (sog'ayishga) erishish va retsidivlar chastotasi ham ko'p omilli hodisadir. Mazkur omillarga bog'liq tarzda, GMT ni davolash samaradorligi turli hududlarda turlicha bo'lib, uni mintaqaviy darajada tahlil etish va baholash muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.


Maqsad. Ushbu tadqiqotning maqsadi Samarqand viloyatida iste'mol qilinadigan giyohvandlik vositalari toifasining tobelikdan sog'ayish darajasiga ta'sirini baholashdan iborat.

Tadqiqot materiallari va usullari. Mazkur tadqiqot Samarqand davlat tibbiyot universitetida amalga oshirilgan. Ma'lumotlarning birlamchi manbai sifatida Respublika ixtisoslashtirilgan ruhiy salomatlik ilmiy-amaliy tibbiyot markazining narkologiya xizmati bo'yicha Samarqand viloyati filialining 2010-2024 yillar mobaynidagi giyohvand moddalarga tobelikdan sog'ayish holatlarini va shu davrdagi iste'mol qilinadigan giyohvandlik vositalari toifasini aks ettiruvchi tegishli tibbiy hujjatlari va hisobotlaridan foydalanildi.

Giyohvand moddalarga tobelik va yondosh patologiyalar tashxisi hamda patsiyentlar holatining og'irlik darajasi shikoyatlar, obyektiv klinik ma'lumotlar, epidemiologik anamnez, xos laboratoriya tahlillari va qo'shimcha tekshiruv (funksional, uskunali, laboratoriya usullari) natijalari asosida qo'yilgan. Patsiyentlarda GMT kechishining og'irlik darajasi JSST yo'riqnomalari, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining tegishli hujjatlari asosida baholandi. Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida klinik, epidemiologik, ijtimoiy-gigiyenik, laborator va statistik usullardan foydalanildi. Dinamikada giyohvand moddalarga tobelik jadalligi, remissiya chastotasi va turli giyohvandlik vositalarining hissasi retrospektiv epidemiologik tahlil asosida amalga oshirildi. Giyohvand moddalarga tobelikdan sog'ayish dinamikasining asosiy yo'nalishini aniqlash maqsadida kichik kvadratlar usuli qo'llanildi. GMT bemorlarida kuzatilayotgan remissiya chastotasi bilan turli giyohvandlik vositalari o'rtasidagi korrelyatsiya koeffitsiyentlari (r) Pirson usuli bo'yicha hisoblandi. Tadqiqot natijalariga ishlov berish Windows (StatSoft Inc., SSHA), MS Excel 7.0 (Microsoft Corp., SSHA) Statistica uchun dasturiy ta'minotini qo'llab standart statistik usullar yordamida amalga oshirildi.

Natijalar. Giyohvand moddalarga tobe patsiyentlar o'rtasida remissiya chastotasining dinamikasini tahlil etish shuni ko'rsatadiki, 2010-2024 yy. mobaynida ≥ 6 oy remissiya chastotasi 4,3% dan (2014 y.) 40,9% (2018 y.)


gacha ko'lamda tebranib, o'rtacha 14,6% patsiyentlarda qayd etilgan. Ko'p yillik dinamikada giyohvand moddalarga tobe patsiyentlar o'rtasida remissiya chastotasi o'sish tendensiyasi bilan tavsiflanadi (1-rasm).



1-rasm. Giyohvand moddalarga tobe patsiyentlar o'rtasida remissiya chastotasining dinamikasi va tendensiyasi ($U_T = a + bx$), 2010-2024 yy., %

2010-2024 yillar mobaynida dispanser nazoratidagi patsiyentlar tomonidan 6 ta toifadagi giyohvand moddalar (GM) iste'mol qilingan bo'lib, ular o'rtasida opiy guruhidagi GM iste'molining hisssasi o'rtacha 19,5% ni tashkil etgan va 8,3% dan (2017 yil) 37,2% ga

(2022 yil) qadar tebranib turgan. Opiy guruhidagi GM iste'molining hisssasi 2010 yildagiga (30,2%) qaraganda 2024 yilda (8,9%) 3,4 marta kamaygan (2-rasm). Tobe patsiyentlardagi remissiya chastotasi opiy guruhidagi GM



2-rasm. Tobe patsiyentlardagi remissiya chastotasi va iste'mol qilinadigan giyohvandlik vositalari tarkibidagi opiy ulushi o'rtasidagi bog'liqlik, 2010-2024 yy., %

iste'molining hisssasi yuqori paytlarda past darajada, ushbu vositalar hisssasi pasaygan

Qabul qilinadigan preparatlar o'rtasida heroin iste'molining hisssasi o'rtacha 47,5% ni tashkil etgan va 2010 yildagiga (63,8%)


iste'molining hisssasi 18,2% dan (2021 yil) 71,0% ga (2011 yil) qadar tebranib turgan, hamda 2011 yildan 2021 yilga qadar uzluksiz pasaygan va shu yillar mobaynidagi pasayish

davrda esa nisbatan yuqoriroq darajada kuzatilgan.

qaraganda 2024 yilda (38,6%) 1,7 marta kamaygan. Heroin

darajasi 3,9 martani tashkil etadi. Shu bilan birga, ta'kidlash joizki, 2022 yildan boshlab heroin ulushining o'sishi kuzatilmoqda. Umuman olganda, viloyatda heroin

iste'molining hisssasi 2010 yildagiga (63,8%) qaraganda 2024 yilda (38,6%) 1,7 marta kamaygan (3-rasm). Tobe patsiyentlardagi




3-rasm. Tobe patsiyentlardagi remissiya chastotasi va iste'mol qilinadigan giyohvandlik vositalari tarkibidagi heroin ulushi o'rtasidagi bog'liqlik, 2010-2024 yy., %

remissiya chastotasi va heroin iste'molining hisssasi o'rtasida yaqqol nomutanosiblik mavjud, ya'ni GM iste'moli tarkibida heroin hissasining yuqoriligi, remissiya chastotasining pasayishiga olib keladi.

Tahlil etilayotgan yillar mobaynida ko'knori iste'molining hisssasi o'rtacha 3,3% ni


tashkil etib, 2,1% dan (2011 va 2017 yillarda) 6,0% ga (2019 yil) qadar tebranib turgan. Ko'knori iste'molining hisssasi 2010 yildagiga (3,1%) qaraganda 2024 yilda (2,6%) 1,2 marta kamaygan (4-rasm).



4-rasm. Tobe patsiyentlardagi remissiya chastotasi va iste'mol qilinadigan giyohvandlik vositalari tarkibidagi ko'knori ulushi o'rtasidagi bog'liqlik, 2010-2024 yy., %

Samarqand viloyatidagi GMT patsiyentlar tomonidan qabul qilinadigan moddalar toifasi borasidagi ahamiyatli jihatlardan biri, so'nggi 15 yil mobaynida kannabis guruhidagi GM iste'molining hisssasi keskin oshganligi hisoblanadi. Qo'llanilgan moddalar o'rtasida kannabis guruhidagi


preparatlar hisssasi o'rtacha 21,5% ni tashkil etib, 1,8% dan (2011 yil) 48,1% ga (2021 yil) qadar tebranib turgan, ya'ni o'rtadagi tafovut 26,7 martani tashkil etadi. Kannabis guruhidagi GM iste'molining hisssasi 2010 yildagiga (2,3%) qaraganda 2024 yilda (34,8%) 15,1 marta oshgan (5-rasm).



5-rasm. Tobe patsiyentlardagi remissiya chastotasi va iste'mol qilinadigan giyohvandlik vositalari tarkibidagi kannabis ulushi o'rtasidagi bog'liqlik, 2010-2024 yy., %

Viloyatda sintetik giyohvand moddalar va dori vositalari iste'moli 2018 yildan boshlangan va o'rtacha 1,7% ni tashkil etadi.


Qisqa muddatda - 2018 yildan (0,8%) 2024 yilga (4,1%) qadar, mazkur vositalar hissi 5,1 marta oshgan (6-rasm).



6-rasm. Tobe patsiyentlardagi remissiya chastotasi bilan iste'mol qilinadigan giyohvand moddalar tarkibidagi sintetik va dori vositalari ulushi o'rtasidagi bog'liqlik, 2010-2024 yy., %

Qabul qilinadigan moddalar toifasi borasidagi yana bir ahamiyatli holat polinarkomaniya hodisasining o'sishi hisoblanadi. Polinarkomaniya hissi o'rtacha 6,5% ni tashkil etib, 0,2% dan (2010-2012 yy.) 15,1% ga qadar tebranib turgan. 2010-2012 yy.

dan to 2019 yilga (15,1%) qadar uzluksiz o'sish, 2020 yildan (13,3%) 2024 yilgacha (10,1%) biroz pasayish kuzatilgan. Polinarkomaniya hissasining ushbu pasayishi, avvalo, so'nggi yillarda heroin iste'moli hissasining oshayotganligi




7-rasm. Tobe patsiyentlardagi remissiya chastotasi va iste'mol qilinadigan giyohvandlik vositalari tarkibidagi polinarkomaniya ulushi o'rtasidagi bog'liqlik, 2010-2024 yy., %

bog'liq. Ta'kidlash joizki, remissiya chastotasi bilan ko'knori, kannabis, polinarkomaniya, sintetik va dori vositalari iste'molining hissasi o'rtasida u yoki bu darajadagi mutanosiblik mavjud, ya'ni GM iste'moli tarkibida ular hissasi oshishi, remissiya chastotasining o'sishiga olib keladi.

Samarqand viloyatida iste'mol qilinadigan giyohvandlik vositalari toifasining

tobelikdan sog'ayish darajasiga ta'sirini miqdoriy tahlil etish natijalari shuni ko'rsatadiki, iste'mol qilinadigan 6 toifadagi GM tarkibida opiy guruhidagi preparatlar va geroin ulushining oshishi bilan GMT bemorlarining sog'ayish darajasi o'rtasida yaqqol salbiy korrelyativ bog'liqlik mavjud (8-rasm). Xususan, opiy guruhida $r=-0,13$,



Qizil ustunlar — manfiy bog'liqlikni, Yashil ustunlar — musbat bog'liqlikni ifodalaydi.

8-rasm. Samarqand viloyatida 2010–2024 yillardagi iste'mol qilinadigan giyohvandlik vositalari toifasi va tobelikdan sog'ayish darajasi o'rtasidagi korrelyativ bog'liqlik

ya'ni manfiy zaif bog'liqlik: opiy iste'moli yuqori bo'lgan davrlarda remissiya darajasi past bo'lgan. Geroin guruhida $r=-0,46$, ya'ni

Aksincha, iste'mol qilinadigan GM tarkibida polinarkomaniya, ko'knori, kannabis guruhidagi GM, sintetik va dori giyohvandlik vositalari ulushining oshishi bilan GMT

kuchli manfiy bog'liqlik: geroin iste'moli yuqori bo'lgan yillarda remissiya darajasi keskin pasaygan.

bemorlarining sog'ayish darajasi o'rtasida musbat korrelyativ bog'liqlik mavjud. Musbat korrelyativ bog'liqlik GM toifasiga ko'ra quyidagi miqdoriy ko'rinishlarda ifodalanagan:

polinarkomaniya ($r=+0,43$), ko'knori ($r=+0,42$), kannabis guruhidagi GM ($r=+0,36$) hamda sintetik va dori giyohvandlik vositalarida ($+0,05$).

Muhokama. Samarqand viloyatida giyohvand moddalarga tobe patsiyentlar o'rtasida ≥ 6 oy remissiya chastotasi, 2010-2016 yy. mobaynida 10,0% atrofida yoki pastroq darajada, 2017-2019 yillarda nisbatan yuqoriroq darajada - 21,0-40,9% oralig'ida kuzatilgan. Ko'p yillik dinamikada GMT patsiyentlar o'rtasida remissiya chastotasining o'sish tendensiyasi kuzatilayotgan bo'lsada, 2020 yildan boshlab uning yaqqol pasayishi qayd etilmoqda. GMT patsiyentlar o'rtasida o'rtacha remissiya chastotasi (14,3%), jahondagi ortacha ko'rsatkichdan (20–35%) [7] past.

2010-2017 yy. mobaynida opiy guruhidagi moddalar jami iste'moldagi GM tarkibining deyarli 1/3 qismini tashkil etgan bo'lsa, 2018 yilda (10,3), 2017 yildagiga qaraganda (37,2%) keskin – 3,6 marta pasaygan va mazkur holat hanuzga qadar uzluksiz davom etmoqda. Bu hodisa 2018 yildan boshlab giyohvandlik vositalari iste'molidagi tarkibiy transformatsiyalar sodir bo'lganligi va, ayniqsa, kannabis guruhidagi GM ulushining keskin oshganligi, hamda shu paytdan boshlab sintetik va dori vositalarining iste'moli boshlanganligi bilan izohlanadi.

2010-2024 yillar mobaynida qabul qilinadigan preparatlar o'rtasida geroin iste'molining hissasi ustuvor bo'lib, 2020-2021 yillarda nisbatan pasaygan bo'lsada, 2022 yildan boshlab geroin ulushining o'sishi kuzatilmoqda, hamda bu holat prognostik noxush alomat hisoblanadi. SHu yillar mobaynida ko'knori iste'moli keskin o'zgarishlarsiz deyarli bir maromda kechgan.

Tahlil etilayotgan yillar mobaynida kannabis guruhidagi GM iste'molining uzluksiz, 2017 yildan boshlab esa keskin oshganligi va hanuzga qadar yuqori darajada saqlanib qolayotganligi, shuningdek sintetik giyohvand moddalar va dori vositalari iste'moli shakllanayotganligi, polinarkomaniya hodisasining o'sayotganligi noxush prognostik

holat sifatida baholanishi zarur. Ularning asl sabablariga oydinlik kiritilishi uchun tobelik shakllanishining hududiy, demografik va ijtimoiy jihatlarini o'rganishga qaratilgan majmuaviy tadqiqotlar amalga oshirilishi taqazo etiladi. Muayyan darajada kannabis guruhidagi GM va sintetik giyohvand moddalar iste'molining o'sishini, bu borada jahonda kuzatilayotgan umumiy tendentsiyaga bog'liq tarzda izohlash mumkin [15].

Sintetik moddalar ishlab chiqarilishining arzonligi, ularni va kannabis guruhidagi vositalarni global tarmoqlar orqali sotishning o'ng'ayligi, jahon miqyosida ushbu vositalarning tezroq tarqalishini belgilamoqda [1, 5, 6, 7].

Iste'mol qilinadigan GM tarkibida opiy guruhidagi preparatlar va geroin ulushining oshishi bilan GMT bemorlarining sog'ayish darajasi o'rtasida salbiy, iste'mol qilinadigan GM tarkibida ko'knori, kannabis guruhidagi GM, sintetik va dori giyohvandlik vositalari hamda polinarkomaniya ulushining oshishi bilan sog'ayish darajasi o'rtasida musbat korrelyativ bog'liqlik mavjud.

Umuman olganda, Samarqand viloyatidagi joriy manzara — GM iste'molining mintaqaviy o'ziga xosligi, iste'moldagi moddalar xilma-xilligi va o'zgaruvchanligi, sintetik va dori moddalar, kannabis guruhidagi vositalarning hissasi o'sishi, va davolashdan keyingi remissiya chastotasining nisbatan pastligi bilan tavsiflanadi. Bu — klinik, epidemiologik va jamoat salomatligi nuqtayi nazaridan integratsiyalangan va resurslar samaradorligini oshiradigan yondashuvlarni talab etadi.

Xulosalar. 1. Giyohvand moddalarga tobelikdan sog'ayish chastotasi biologik, psixologik va ijtimoiy holatlar barobarida ko'p yillik dinamikada iste'mol qilinadigan turli giyohvandlik vositalari hissasining transformatsiyasiga monand tarzda o'zgarishlarga uchraydi.

2. GMT bemorlarining sog'ayish darajasi bilan iste'mol qilinadigan GM tarkibida opiy guruhidagi preparatlar va geroin ulushining oshishi o'rtasida salbiy,

polinarkomaniya, ko'knori, kannabis guruhidagi GM, sintetik va dori giyohvandlik vositalari ulushining oshishi bilan musbat korrelyativ bog'liqlik mavjud.

3. Samarqand viloyatida remissiya chastotasining nisbatan pastligi, patsientlarni majmuaviy davolashga qaratilgan klinik,

epidemiologik va jamoat salomatligi nuqtayi nazaridan integratsiyalangan va resurslar samaradorligini oshiradigan terapevtik hamda reabilitatsion yondashuvlar qo'llanilishini taqazo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ashurov Z.Sh., Xayredinova I.I., Yadgarova N.F., Lyan E.M. Polizavisimlikni shakllanish xavfi omillarining integral baholashi. Biologiya va tibbiyot muammolari 2022, №4 (137) b. 21-25.
2. Baxramov F.Sh. Toshkent shahrida narkotik moddaga bog'liqlik tarqalishini baholash // O'zbekiston psixiatrlari I kongressi, xalqaro ishtirok bilan. Kongress materiallari. – Toshkent, 2015. – B.
3. Zokirov A.X. Narkotik moddalarni iste'mol qiluvchi odamlarda ijtimoiy-demografik xususiyatlar. Avchi Zuhul. 2015;3:41.
4. Rizayev J.A., Umirov S.E., Kenjaeva N.K. Giyohvand moddalarga bog'liqlik shakllanishining hududiy xususiyatlari // Biologiya va tibbiyot muammolari 1(145), b. 158-161
5. Rybakova K.V., Ilyuk R.D., Pushina V.V., Vuks A.Ya., Anuchina A.A., Krupitskiy E.M. Opiodga bog'liqlikda ijtimoiy-demografik, klinik xususiyatlar va anozognoziya ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish. Narkologiya masalalari. 2018;5:63-6.
6. Topalov K.P., Yurchenko T.Yu. Xabarovsk viloyati aholisi orasida kasallanishni o'rganishdagi asosiy tendensiyalar va qonuniyatlar